“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=382

2026-yil
8-son
avgust
ISSN 3093-8546

Jahon savdo tashkilotining Xizmatlar savdosi bo‘yicha bosh kelishuvi (XSBK) doirasida davlat xizmatlarining huquqiy maqomini belgilash masalalari

Shoira Alamonova,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Xalqaro huquq va inson huquqlari sho‘basi o‘qituvchisi
e-mail: shoiraalamonova@gmail.com

Аннотация. Maqolada JSTning Xizmatlar savdosi bo‘yicha bosh kelishuvi (XSBK) doirasida davlat xizmatlarining huquqiy maqomi tahlil qilinadi. O‘zbekiston qonunchiligidagi mavjud muammolar xorijiy tajriba asosida o‘rganilib, davlatning ijtimoiy funksiyalari va xalqaro savdo majburiyatlari o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashga qaratilgan takliflar ilgari suriladi.Shuningdek, ta’lim, sog‘liqni saqlash va boshqa ijtimoiy ahamiyatga ega xizmatlarni huquqiy tartibga solishni takomillashtirish masalalari yoritiladi.

Калит сўзлар. Jahon savdo tashkiloti, JST, Xizmatlar savdosi bo‘yicha bosh kelishuv, XSBK, davlat xizmatlari, davlat vakolatini amalga oshirish doirasidagi xizmatlar, xizmatlar savdosi, xalqaro savdo huquqi

Аннотация. В статье анализируется правовой статус государственных услуг в рамках Генерального соглашения по торговле услугами (ГАТС) ВТО. На основе зарубежного опыта рассматриваются проблемы законодательства Узбекистана и предлагаются меры по обеспечению баланса между социальными функциями государства и международными торговыми обязательствами.Особое внимание уделяется совершенствованию правового регулирования образования, здравоохранения и других социально значимых услуг.

Ключевые слова. Всемирная торговая организация, ВТО, Генеральное соглашение по торговле услугами, ГАТС, государственные услуги, услуги в сфере осуществления государственной власти, торговля услугами, международное торговое право

Annotation. This article examines the legal status of public services under the WTO General Agreement on Trade in Services (GATS). Drawing on foreign experience, it identifies key issues in Uzbekistan’s legislation and proposes measures to balance the state’s social functions with its international trade obligations.Particular attention is given to improving the legal regulation of education, healthcare, and other socially significant services.

Keywords. World Trade Organization, WTO, General Agreement on Trade in Services, GATS, public services, services supplied in the exercise of governmental authority, trade in services, international trade law

O‘zbekiston Respublikasining Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo‘lish jarayoni milliy qonunchilikni xalqaro savdo huquqi talablariga moslashtirishni taqozo etmoqda. Hozirgi kunga qadar amalga oshirilgan huquqiy islohotlar, asosan, tovarlar savdosi bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan bo‘lsa, xizmatlar savdosi doirasidagi xalqaro majburiyatlar, ayniqsa davlat xizmatlarining huquqiy maqomini aniqlash masalasi yetarli darajada normativ-huquqiy tartibga solinmagan. Bu esa JSTga a’zo bo‘lish bo‘yicha muzokaralar yakunlanib borayotgan sharoitda mazkur masalaning ilmiy va amaliy ahamiyatini yanada oshirmoqda[1].

Xizmatlar savdosining jahon iqtisodiyotidagi ulushi va ahamiyati yildan yilga ortib bormoqda. Xususan, JST va UNCTADning 2026-yilda e’lon qilingan qo‘shma ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilda jahon xizmatlar eksporti hajmi 9,5 trillion AQSH dollaridan oshgan bo‘lib, mazkur soha global savdoning eng jadal rivojlanayotgan segmentlaridan biri bo‘lib qolmoqda[2].

Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda xizmatlar sohasining jahon yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 66,2 foizni tashkil etgan[3]. Shu bilan birgalikda, 2023-yilda xizmatlar sektori O‘zbekiston yalpi ichki mahsulotining 43,9 foizini, 2024-yilda esa 45,2 foizini tashkil etgan[4].

JST a’zolari tomonidan qabul qilingan xizmatlar savdosi bo‘yicha majburiyatlarning aksariyati ta’lim, sog‘liqni saqlash, moliyaviy xizmatlar, transport, aloqa va kommunal xizmatlar kabi strategik tarmoqlarga ta’sir ko‘rsatadi. Ya’ni, yuqoridagi ko‘rsatkichlar, o‘z navbatida, xizmatlar savdosi bo‘yicha qabul qilinadigan xalqaro majburiyatlar mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy siyosatiga bevosita ta’sir ko‘rsatishini anglatadi. Shu sababli davlat tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlarning qaysi qismi xalqaro savdo majburiyatlari doirasiga tushishi va qaysi qismi davlat vakolatini amalga oshirish doirasidagi xizmat sifatida istisno qilinishi masalasi har bir davlat uchun strategik ahamiyatga ega.

XSBKning asosiy xususiyati shundaki, u faqat xususiy xizmat ko‘rsatuvchilar faoliyatini emas, balki ayrim hollarda davlat tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlarni ham qamrab olishi mumkin. Xususan, XSBKning I:1-moddasiga ko‘ra, kelishuv a’zolar tomonidan xizmatlar savdosiga ta’sir ko‘rsatuvchi barcha choralarni qamrab oladi[5]. Ushbu qoida juda keng mazmunga ega bo‘lib, u qonunlar, qarorlar, ma’muriy tartib-taomillar, litsenziyalash talablari, tarif siyosati, subsidiya, davlat organlari va davlat ishtirokidagi tashkilotlar faoliyatiga oid choralarni ham o‘z ichiga olishi mumkin.

Shu bilan birga, XSBKning I:3(b)-moddasida “davlat vakolatini amalga oshirish doirasida ko‘rsatiladigan xizmatlar” kelishuv doirasidan chiqarilishi belgilangan[6]. Biroq ushbu istisno mutlaq

emas. XSBKning I:3(c)-moddasiga ko‘ra, bunday xizmat deganda na tijorat asosida, na boshqa xizmat ko‘rsatuvchilar bilan raqobat sharoitida ko‘rsatiladigan xizmat tushuniladi[7]. Demak, xizmat XSBK doirasidan tashqarida qolishi uchun ikki shart bir vaqtning o‘zida mavjud bo‘lishi lozim: birinchidan, xizmat tijorat asosida ko‘rsatilmasligi; ikkinchidan, u boshqa xizmat ko‘rsatuvchilar bilan raqobat sharoitida amalga oshirilmasligi kerak.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida davlat xizmatlari bilan bog‘liq asosiy institutlar shakllantirilgan bo‘lsa-da, ular JSTning Xizmatlar savdosi bo‘yicha bosh kelishuvi (XSBK) doirasidagi talablar bilan tizimli ravishda uyg‘unlashtirilmagan. Ayniqsa, XSBKning I:3(c)-moddasida nazarda tutilgan “davlat vakolatini amalga oshirish doirasidagi xizmatlar” istisnosining milliy huquqdagi ifodasi mavjud emas. Natijada ayrim xizmatlarning xalqaro savdo majburiyatlari doirasiga tushishi yoki tushmasligi masalasi huquqiy jihatdan noaniq bo‘lib qolmoqda.

Birinchi muammo davlat vakolatini amalga oshirish doirasidagi xizmatlarning huquqiy maqomi bilan bog‘liq. XSBKning I:3(c)-moddasiga ko‘ra, xizmat xalqaro savdo majburiyatlaridan istisno qilinishi uchun u bir vaqtning o‘zida ham tijorat asosida ko‘rsatilmasligi, ham boshqa xizmat ko‘rsatuvchilar bilan raqobat sharoitida amalga oshirilmasligi lozim. Biroq amaldagi sohaviy qonunchilikda davlat tomonidan kafolatlangan ayrim xizmatlarning XSBK I:3(c)-moddasi nuqtai nazaridan huquqiy maqomi yetarli darajada aniqlashtirilmagan. Xususan, “Ta’lim to‘g‘risida”gi hamda “Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida”gi qonunlarda davlat tomonidan kafolatlangan bepul xizmatlar bilan tijorat asosida ko‘rsatiladigan xizmatlar o‘rtasidagi huquqiy chegara aniq belgilanmagan. Mazkur holat ayrim davlat ta’lim va tibbiyot muassasalari tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlarning XSBK doirasidagi maqomini aniqlashda huquqiy noaniqliklarni yuzaga keltirishi mumkin.

Ikkinchi muammo ichimlik suvi ta’minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish sohasida davlat tomonidan qo‘llaniladigan tartibga solish choralari maqsadlarining qonunchilikda yetarli darajada aniqlashtirilmaganligi bilan bog‘liq. Amaldagi qonunchilikda ichimlik suvi ta’minoti, oqova suvlarni chiqarib yuborish va boshqa ijtimoiy ahamiyatga ega xizmatlar sohasida davlatning tartibga solish vakolatlari belgilangan bo‘lsa-da, mazkur choralar jamoat manfaatlarini, aholining hayoti va sog‘lig‘ini himoya qilish hamda xizmatlardan umumiy foydalanish imkoniyatini ta’minlashga qaratilganligi bevosita nazarda tutilmagan. Bu esa mazkur sohada davlat tomonidan qo‘llaniladigan tartibga solish choralarining maqsadini xalqaro standartlar nuqtai nazaridan talqin qilishda ayrim huquqiy noaniqliklarni yuzaga keltirishi mumkin.

Uchinchi muammo ta’lim va sog‘liqni saqlash xizmatlarida davlatning ijtimoiy funksiyasi bilan tijorat faoliyati o‘rtasidagi chegaraning aniq belgilanmaganligi bilan bog‘liq. So‘nggi yillarda

ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalarida bozor mexanizmlaridan foydalanish ko‘lami sezilarli darajada kengaydi. Bugungi kunda davlat va nodavlat oliy ta’lim muassasalari bir xil bozor segmentida faoliyat yuritmoqda. Xuddi shuningdek, davlat va xususiy tibbiyot muassasalari ham ko‘plab xizmatlar bo‘yicha o‘zaro raqobatlashmoqda. Biroq “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun hamda “Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida”gi qonunda davlat tomonidan kafolatlangan xizmatlar bilan tijorat asosida ko‘rsatiladigan xizmatlar o‘rtasidagi chegara xalqaro savdo huquqi nuqtai nazaridan aniq belgilanmagan. Natijada bepul va pullik xizmatlar, davlat va xususiy xizmatlar, ijtimoiy va iqtisodiy funksiyalar bir-biri bilan aralashib ketgan. Bu esa kelgusida ayrim ta’lim va tibbiyot xizmatlarining XSBK doirasida xizmatlar savdosi obyekti sifatida talqin qilinishi ehtimolini yuzaga keltiradi.

To‘rtinchi muammo, GATSning VI:1-moddasi litsenziyalash va malaka talablarining xolis hamda oshkora mezonlarga asoslanishini, VI:4-moddasi esa ularning xizmatlar savdosiga zarur bo‘lmagan ortiqcha to‘siqlar yaratmasligini talab qiladi. O‘zbekistonda “Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to‘g‘risida”gi qonunda litsenziyalash mezonlari belgilangan bo‘lsa-da, ularning zaruriylik (necessity) va mutanosiblik (proportionality) mezonlariga muvofiqligi bevosita nazarda tutilmagan. 2023-yilda JSTning Ichki tartibga solish bo‘yicha yangi intizomlari bu talabni yanada mustahkamlagan bo‘lsa-da, O‘zbekiston qonunchiligida mazkur standart hali to‘liq aks ettirilmagan. Bu esa JSTga a’zolik muzokaralari yakuniy bosqichga kirayotgan bir sharoitda huquqiy tavakkalchiliklarni yuzaga keltirmoqda.

Demak, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida davlat xizmatlari sohasidagi asosiy muammolar: davlat tomonidan kafolatlangan ijtimoiy xizmatlarning huquqiy maqomi yetarli darajada aniqlashtirilmaganligi, universal davlat xizmatlari institutining shakllantirilmaganligi, ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalarida ijtimoiy hamda tijorat funksiyalarining ajratilmaganligi hamda xizmatlar sektorining XSBK talablariga muvofiqligi yuzasidan kompleks audit tizimining mavjud emasligi bilan tavsiflanadi. Mazkur muammolarni bartaraf etish O‘zbekiston Respublikasining JSTga a’zolik jarayonida milliy manfaatlarni samarali himoya qilish va xalqaro majburiyatlar bilan davlatning ijtimoiy funksiyalari o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashga xizmat qiladi.

Davlat tomonidan kafolatlangan ijtimoiy xizmatlar bilan tijorat asosida ko‘rsatiladigan xizmatlarni huquqiy jihatdan ajratish masalasi qator xorijiy davlatlar qonunchiligida o‘z aksini topgan. Xususan, **Yangi Zelandiya**ning “Public Service Act” (2020) davlat organlari faoliyatini jamoat manfaatlariga xizmat qilish va davlatning asosiy funksiyalarini amalga oshirish tamoyillari asosida tartibga soladi. Shu bilan birga, davlat tomonidan ko‘rsatiladigan ijtimoiy xizmatlar hamda bozor tamoyillari asosida amalga

oshiriladigan iqtisodiy faoliyat turli huquqiy rejimlarda tartibga solinadi. Mazkur yondashuv davlatning ijtimoiy funksiyalarini tijorat faoliyatidan aniq ajratish orqali xalqaro savdo majburiyatlari bilan davlat manfaatlari o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashga xizmat qiladi[8].

Finlandiyada ham davlat tomonidan kafolatlanadigan asosiy ijtimoiy xizmatlar bilan bozor tamoyillari asosida ko‘rsatiladigan xizmatlar o‘rtasidagi farq qonunchilik darajasida mustahkamlangan. Xususan, “Act on the Organisation of Healthcare and Social Welfare Services”ga muvofiq sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarni tashkil etish hamda aholiga teng va uzluksiz ko‘rsatish davlatning majburiy vazifasi hisoblanadi. Shu bilan birga, ayrim qo‘shimcha xizmatlar xususiy sektor tomonidan bozor tamoyillari asosida ko‘rsatilishi mumkin. Mazkur yondashuv davlat tomonidan kafolatlangan ijtimoiy xizmatlarni tijorat xizmatlaridan huquqiy jihatdan ajratishga xizmat qiladi[9].

Universal davlat xizmatlari institutining faoliyat yuritishi jihatidan **Yevropa ittifoqi (YI)** tajribasi alohida e’tiborga loyiq. Xususan, Yevropa ittifoqi faoliyati to‘g‘risidagi shartnomaning 14-moddasi hamda 26-sonli protokolida “Services of General Economic Interest” instituti mustahkamlangan[10]. Mazkur institutga ko‘ra, elektr energiyasi, gaz, ichimlik suvi, transport, pochta va aloqa xizmatlari aholining asosiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan universal xizmatlar sifatida e’tirof etiladi.

Shuningdek, YIning 2006/123/EC-sonli “Services Directive”ga ko‘ra, xizmat faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya tizimi faqat u kamsitmaydigan (non-discriminatory), jamoat manfaatlari bilan asoslangan zaruriy (necessary) va kamroq cheklovchi vosita bilan erishib bo‘lmaydigan (proportionate) hollarda joriy etilishi mumkin (9-modda). Shuningdek, litsenziya berish mezonlari aniq, obyektiv, oldindan e’lon qilingan va oshkora bo‘lishi shart[11]. Mazkur yondashuv litsenziyalash talablarining xizmatlar savdosiga ortiqcha to‘siq bo‘lmasligini ta’minlaydi va GATS VI:4-moddasidagi necessity test mazmuniga mos keladi.

Shuningdek, **Germaniya**ning “Energiya xo‘jaligi to‘g‘risida”gi qonuni (Energiewirtschaftsgesetz)[12] hamda **Fransiya**ning Pochta va elektron aloqa kodeksida[13] universal xizmatlar tushunchasi alohida mustahkamlangan. Mazkur hujjatlarda davlat fuqarolarning asosiy ehtiyojlarini qondirish uchun zarur xizmatlarning uzluksizligi, sifati va hamma uchun mavjudligini ta’minlash majburiyatini o‘z zimmasiga oladi.

Mazkur tajriba aholining minimal ehtiyojlarini ta’minlashga qaratilgan xizmatlarni alohida huquqiy kategoriya sifatida belgilash xalqaro amaliyotda keng qo‘llanilayotganini ko‘rsatadi.

Kanadada 1985-yilda qabul qilingan Canada Health Act sog‘liqni saqlash tizimining asosiy qismi davlat tomonidan moliyalashtiriladigan universal xizmat ekanligini belgilaydi[14]. Mazkur qonunga muvofiq tibbiy xizmatlarning asosiy qismi notijorat tamoyillar asosida amalga oshiriladi. Shu bilan birga,

qo‘shimcha tibbiy xizmatlar va ayrim maxsus xizmatlar bozor mexanizmlari asosida ko‘rsatilishi mumkin.

Norvegiyaning “Education Act” hamda “Universities and University Colleges Act” hujjatlarida ham davlat tomonidan kafolatlangan ta’lim xizmatlari bilan pullik ta’lim xizmatlari o‘rtasidagi huquqiy chegara aniq belgilangan[15]. Davlat tomonidan moliyalashtiriladigan ta’lim xizmatlari ijtimoiy vazifa sifatida qaralsa, xalqaro ta’lim xizmatlari va ayrim maxsus dasturlar iqtisodiy faoliyat sifatida tartibga solinadi.

Xuddi shuningdek, **Yangi Zelandiya**da “Education and Training” (2020) davlat tomonidan kafolatlangan ta’lim xizmatlari va tijorat asosida ko‘rsatiladigan ta’lim xizmatlarini alohida tartibga solidi[16].

Yuqoridagi xorijiy tajriba tahlili shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarning aksariyati davlat xizmatlarini xalqaro savdo majburiyatlari bilan muvofiqlashtirishda quyidagi yondashuvlardan foydalanadi: birinchidan, davlatning konstitutsiyaviy va ijtimoiy funksiyalarini bajaruvchi xizmatlarni alohida huquqiy kategoriya sifatida belgilaydi; ikkinchidan, universal davlat xizmatlari institutini joriy etadi; uchinchidan, ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalarida davlat tomonidan kafolatlangan xizmatlarni tijorat xizmatlaridan ajratadi; to‘rtinchidan, xizmatlar sektorining xalqaro majburiyatlarga muvofiqligini muntazam audit qilib boradi.

Yuqoridagi tahlillar asosida O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligini takomillashtirish maqsadida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

– “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunda davlat tomonidan kafolatlanadigan bepul ta’lim xizmatlarining davlatning ijtimoiy funksiyalarini amalga oshirish doirasida ko‘rsatilishi hamda ularning tijorat maqsadini ko‘zlamasligi bilan bog‘liq normalarni aniq belgilash;

– “Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida”gi qonunda davlat tomonidan kafolatlanadigan bepul tibbiy yordamning davlatning ijtimoiy majburiyatlarini amalga oshirish shakli ekanligini hamda uning tijorat va raqobat asosida ko‘rsatiladigan xizmatlar tarkibiga kirmasligini huquqiy jihatdan mustahkamlash;

– “Ichimlik suvi ta’minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish to‘g‘risida”gi qonunda davlat tomonidan amalga oshiriladigan tartibga solish choralari jamoat manfaatlarini, aholi hayoti va sog‘lig‘ini muhofaza qilish hamda xizmatlardan umumiy foydalanish imkoniyatini ta’minlashga qaratilganligini aniq ifodalash;

– “Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to‘g‘risida”gi qonunda litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini qo‘llashda ularning iqtisodiy faoliyatga ta’sirini baholash, shuningdek, mazkur tartib-taomillarning qonuniy maqsadga erishish uchun zarur va mutanosib bo‘lishiga oid huquqiy mezonlarni nazarda tutish.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Xulosa qilib aytganda, davlat xizmatlarining huquqiy maqomini xalqaro standartlar asosida aniq belgilash O‘zbekistonning JSTga a’zo bo‘lish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois milliy qonunchilikni takomillashtirish davlatning ijtimoiy funksiyalari va xalqaro majburiyatlari o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. World Trade Organization, ‘Uzbekistan commits to maintaining strong momentum to accede to the WTO in 2026’ (9 March 2026) <https://www.wto.org/english/news_e/news26_e/acc_09mar26_316_e.htm> accessed 7 June 2026.

2. World Trade Organization and United Nations Conference on Trade and Development, ‘UNCTAD-WTO Trade Data Highlights Shifting Global Trends Ahead of Key Ministerial Talks’ (26 March 2026) <https://unctad.org/news/unctad-wto-trade-data-highlights-shifting-global-trends-ahead-key-ministerial-talks> accessed 6 June 2026.

3. World Bank, Services, value added (% of GDP) (World Development Indicators 2024) <https://data.worldbank.org/indicator/NV.SRV.TOTL.ZS> accessed 7 June 2026.

4. World Bank, Services, value added (% of GDP) – Uzbekistan (World Development Indicators 2024) <https://data.worldbank.org/indicator/NV.SRV.TOTL.ZS?locations=UZ> accessed 7 June 2026.

5. General Agreement on Trade in Services, art I:1.

6. General Agreement on Trade in Services, art I:3(b).

7. General Agreement on Trade in Services, art I:3(c).

8. Public Service Act 2020 (NZ), ss 12–14, 17–18, available at <https://www.legislation.govt.nz/act/public/2020/0040/latest/LMS356873.html>; State-Owned Enterprises Act 1986 (NZ), ss 4–5, available at <https://www.legislation.govt.nz/act/public/1986/0124/latest/DLM97377.html> (accessed 7 June 2026).

9. Act on the Organisation of Healthcare and Social Welfare Services (612/2021) (Finland), available at: https://www.finlex.fi/en/laki/kaannokset/2021/en20210612.pdf (accessed 2 August 2026).

10. Consolidated Version of the Treaty on the Functioning of the European Union [2012] OJ C326/47, art 14, available at <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=CELEX:12012E/TXT>; Protocol (No 26) on Services of General Interest, arts 1–2, available at <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=CELEX:12012E/PRO/26> (accessed 7 June 2026).

11. Directive 2006/123/EC of the European Parliament and of the Council of 12 December 2006 on services in the internal market [2006] OJ L376/36, arts 9–10.

12. Energiewirtschaftsgesetz (Germany), §§ 1, 17–18, available at <https://www.gesetze-im-internet.de/enwg_2005/>(accessed 7 June 2026).

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

13. Code des postes et des communications électroniques (France), arts L1, L35–L35-5, available at <https://www.legifrance.gouv.fr/codes/id/LEGITEXT000006070987> (accessed 7 June 2026).

14. Canada Health Act, RSC 1985, c C-6, ss 7–12, available at <https://laws-lois.justice.gc.ca/eng/acts/c-6/> (accessed 7 June 2026).

15. Education Act 2023 (Norway), chs 1–3, available at <https://lovdata.no/dokument/NLE/lov/2023-06-09-30>; Universities and University Colleges Act 2005 (Norway), available at <https://lovdata.no/dokument/NLE/lov/2005-04-01-15> (accessed 7 June 2026).

16. Education and Training Act 2020 (NZ), ss 33–38, 434–441, available at <https://www.legislation.govt.nz/act/public/2020/0038/latest/LMS170676.html> (accessed 7 June 2026).